



## O'ZBEK TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Shokirova Sanobar Azimovna  
Toshkent temir yo'l texnikumi  
Ona tili va adabiyot, rus guruhlarida  
o'zbek tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada o'zbek tili fanini o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish va uning afzalliklari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, pedagog, intefao, innovatsion texnologiya, imkoniyat, metod, texnologiya.

Bugungi kunda jamiyatimizni umuman olganda kundalik hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Qaysi soha haqida gapirmaylik bu vositalar bizni tark etmaydi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Kompyuter dasturlari vositasida yoshlarning bilimi va dunyoqarashini kengaytirishda keng foydanilmoqda. Turli fanlardan o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etilib, dars samaradorligini yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror



toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lism samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lism jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lism jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Darslarda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitishning interfaol usullari quyidagicha:

***So'zlar vositasida o'yinlar nomi.***

***"So'zni takrorla va qo'sh"***

Bunda o'quvchi bitta mavzu doirasida so'z aytadi, boshqalar davom ettiradi.

Masalan: Oila-on, oila- xotirjamlik, oila- urf-odatlar...

Orzu-yaxshi o'qish, orzu- yetuk mutaxassis, orzu- uchuvchi bo'lish, orzu- baxtli hayot...

Davom ettira olgan oxirgi o'quvchi g'olib bo'ladi.

***"So'zni yozishni bil"***

Bu o'yin usulidan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni lug'at ustida ishlashga undaydi va yozma savodxonligini oshiradi. Bir o'quvchi so'zni o'z tilida so'raydi, ikkinchi o'quvchi shu so'zni o'zbek tilida to'g'ri yoza olishi kerak. So'zni to'g'ri yozgan o'quvchi o'yinni davom ettiradi.



Bu xil metodlarda “Topshiriq”, “O’yla, esla ayt”, “Javobni top”, “O’yin-topshiriq”, “Sayohat”kabi mashq, topshiriqlar bajariladi.

O’zaro musobaqa, fikrlarni bayon etish va tushuntirishga doir usullar. Bunday usullarga “Anjuman”, “Musobaqa”, “Tanlov”, “Sinov”, “Yuzma-yuz” kabilarni kiritish mumkin. Masalan, “Sinov” usulini qo’llashda o’quvchilarga test kartochkalari tarqatiladi. Ushbu kartochkalar faqat o’rganilgan mavzuga oid bo’lib, unda testlar oddiydan murakkabga qarab tuzilishi lozim. Bunday testlar orqali o’quvchilarning erkin fikrlash qobiliyati o’sib, o’zbek tiliga bo’lgan qiziqishlari ortadi.

Interfaol usullarning ta’limiy xususiyatlari quyidagilarga bo’linadi. Bunda interfaol usullar ta’limda sub’yekt-ob’yekt faoliyatini ifodalaydi.

1. O’quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish: sinf o’quvchilari kichik guruhlarga bo’linib, guruhlararo muloqot, bahs-munozara orqali ta’lim beriladi.

2. Interfaol usullarning ta’lim oluvchilarga yo’naltirilganlik xususiyati, ya’ni shaxsga yondashuvchanligidir. Interfaol usulning bu xususiyati o’quvchilarning yakka tartibda, guruh shaklidagi o’zaro hamkorligini ifodalaydi. Bunday faoliyatda o’quvchilarning xilmäßigligi namoyon bo’ladi.

3. Izlanish, ijodiy faoliyat ko’rsatish, o’zaro hamkorlikni ta’minalashga doir xususiyatlari. Bunda o’quvchilar yakka va guruh shaklida ijodiy izlanib, izlanish natijalarini tahlil qiladilar. Bu esa darsda o’quvchining faolligini oshiradi, izlanish, o’ylab topish, uning to’g’riligini o’zaro mulohaza bilan isbotlashga intilishni shakllantiradi.

4. Shaxs sufatlarini shakllantirish xususiyati. Interfaol usullar o’quvchilarni bilishga qiziqtirish, shu bilan birga bilimga intilishini, topqirligini oshirib boradi. Bu esa, o’quvchining intellektual faolligini, o’quv harakati sifatini, aqliy izlanishini takomilashtirishga yordam beradi.

5. Interfaol usullar o’quvchining odobli, tartibli bo’lishi, har bir fikrni o’ylab, dalil-isbotlar asosida ifodalashga o’rgatadi. Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, o’qituvchi mavzuning o’quvchiga to’la tushunarli bo’lishini ta’minalash uchun dars jarayonida interfaol usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’lim samaradorligining yanada oshishiga katta hissa qo’shamdi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. H. Omonov. M. Xattabov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T. . 2016
2. Bobokalonov R, Na'matova G. O'zbek tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. -T. . 2018.
3. Mamatova G, Boqiyeva X, Masharipova U. O'zbek tili o'qitish metodikasi-T. 2019.

